



IMOM BUXORIY “AL-JOME’ AS-SAHIH” TO‘PLAMINING O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMALARI QIYOSIY TAHLILI

¹N.N.To‘rayev

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish
ICESCO kafedrası katta o‘qituvchisi, t.f.PhD
numonjon.turaev@mail.ru

+998 97 470 04 03,

²M.M.Ahmedova

Islomshunoslik yo‘nalishi talabasi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7439898>

ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Al-Jome’ as-sahih, tarjimalar, Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Abdulaziz Mansur, Usmonxon Alimov, Umar ibn Xattob (r.a), roviylar zanjiri, hadislarning raqamlanishi, Umdatul Qoriy sharhu Sahihil Buxoriy, imon.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Imom Buxoriyning “al-Jome’ as-sahih” asarining O‘zbekistondagi amalga oshirilgan tarjimalarining qiyosiy tahlili, ular orasidagi farqli jihatlari, ularda kelgan roviylar silsilasi, hadislarning tartib raqamlari va ularning tarjima to‘plamlari orasidagi o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy asoslari, xossatan, hadislar kelgan o‘rinlar va uning fazli, islom dinida va O‘zbekistonda hadis ilmlari rivojlanishdagi o‘rni, so‘nggi davrlarda qilingan ilmiy tadqiqotlar va ularning tushunishdagi tafovutlar va insonlarga yetkazib berishdagi yengilliklar va bu tadqiqotlar amalga oshirgan yili va tarjimonlar jamoasi kabi masalalar yoritilgan.

O‘zbekistonda amalga oshirilgan hadis to‘plamlari tarjimalari orasida Imom Buxoriyning “al-Jome’ as-sahih” asari ahamiyati va qamrovi bilan birinchi o‘rinda turadi. Ushbu asarning birinchi tarjimasi 6 nafar o‘zbek islomshunoslari tomonidan amalga oshirilgan. 4 jildda nashr etilgan ushbu tarjima muftiy Muhammad Sodik Muhammad Yusufning muqaddimasi bilan Qomuslar bosh tahririyati (hozirgi “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotida nashr etilgan¹. Tarjimonlarning ushbu tarjimadagi hissalar quyidagicha: 1-jild Zokirjon

Ismoil; 2-jil: Xoja Muzaffar Nabixon o‘g‘li va Xoja Baxtiyor Nabixon o‘g‘li; 3-jild Rahmatulloh Qori Qosim o‘g‘li va Xo‘ja Baxtiyor Nabixon o‘g‘li; 4-jild Abdulg‘ani Abdulloh. Muftiy Muhammad Sodik Muhammad Yusufning 4 sahifalik muqaddimasida hadis va hadisshunoslar haqida qisqacha ma‘lumotlar berilgan.

Ikkinchi tarjima esa, Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, 2008-yilda ikki jildda nashr etilgan². Uning birinchi jildi “Vahiy kitobi”dan boshlanib “Ansorlarning manoqiblari

1 Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy: ishonarli to‘plam / 1 jild. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.

2 al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: al-Jome’ as-sahih: (ishonarli to‘plam). T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. –711 b.



haqida bob” bilan tugallangan bo’lib, unda 3948 ta hadis tarjimasi va qisqa izohlari berilgan. Ushbu jildda birinchi tarjimaning 1-2-jildlari jamlangan. Birinchi tarjima nashrining 3-4-jildlarini o’zida jamlagan ikkinchi jild esa, “Kitobul mag’oziy”dan boshlanib “Tavhid kitobi”gacha jami 3615ta hadislarning tarjimasi keltirilgan. Nashrda hadislarning 1-7563-hadisgacha tizimli raqamlangan bo’lib, bu uni asl matn bilan qiyoslab o’rganish imkoniyatini beradi.

Ushbu nashr muftiy Usmonxon Alimovning muqaddimasi bilan chop etilgan bo’lib, unda hadislarning islom dinidagi o’rni, ularning turlari, ilm sifatida rivojlanish bosqichlari, mashhur hadis to’plamlari, Imom Buxoriyning hayoti, uning “al-Jome’ as-sahih” asarining o’zbek tilidagi birinchi tarjimasi va ushbu tarjimaning o’ziga xos jihatlari yoritilgan. Ushbu muqaddimada, jumladan, birinchi nashrning tarjima va tahrirdagi ba’zi kamchiliklardan xoli emasligi ham qayd qilingan. Ikkinchi nashrda ba’zi hadislar sharhlangani ham aytib o’tilgan.

To’plamning uchinchi – mukammal tarjima va sharhi 2013-2018-yillarda 8 jildda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf boshchiligidagi tarjimonlar guruhi tomonidan nashr etilgan³. Ushbu nashr “Oltin silsila” to’g’risidagi qisqacha ma’lumot, Misr Arab Respublikasi muftiysi Ali Juma, Musulmon ulamolari butunjahon kengashi, shayx Muhammad Said Ramazon Butiy, Doktor Vahba Zuhayliy kabilarning taqrirlari, hadisning islom dinidagi o’rni, uning ilmining shakllanishi, rivoji, “Oltin silsila” loyihasi, Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, “Sahihul Buxoriy”ning manbashunosligi kabi muhim ma’lumotlar

berish bilan boshlangan. Loyihaning 9 ishonchli to’plamni o’z ichiga olishi ko’zda tutilganini inobatga olganda muqaddima qismining 115 sahifani tashkil etishi tabiiy hol, deb hisoblash mumkin. Muqaddimada loyihaning nomlanishi va tartibi to’g’risida quyidagilar alohida qayd etilgan: “Rasululloh (s.a.v.)ning hadislarini yaxshi niyat bilan, Alloh subhanahu va taolodan yordam so’ragan holda tarjima qilishga kirishar ekanmiz, to’qqizta eng mo’tabar hadis kitoblardan tashkil topgan ushbu to’plamga «Oltin silsila» deb nom qo’yishni ma’qul topdik. Uni ilmiy asosda, xalqaro andozalarga muvofiq ravishda, malakali mutaxassislar ishtirokida tarjima qilib, o’ziga xos ensiklopediya qilishga kirishdik.

Bu kitoblarning birinchi oltitasi eng sahih va sanadi oliy hadis kitoblaridir. Bular Islom ummati ichida katta shuhrat topgan olti asl kitoblardir. Islom ummati ularni bir ovozdan hadisi shariflarni jamlash borasidagi eng sahih va mo’tabar kitoblar deb e’tirof etgan, chunki ular shariatdagi eng asosiy va eng qimmatli ma’lumotlarni o’zida jamlagandir. Balki imom Navaviy ta’kidlaganidek, «shariatning barchasi shulardir». Rasululloh (s.a.v.) ning juda oz hadislarigina ushbu oltita asl kitobdan chetda qolgan. Hech shak-shubha yo’qki, bu kitoblar inson ikki dunyo saodatiga erishishi uchun muhtoj bo’ladigan narsalarni o’z ichiga olgan.

Mazkur olti hadis kitoblariga qo’shilgan keyingi uch kitob ham ulardan qolishmaydi. Bu uch kitobdan har biri olti sahih kitob qatoridan joy olishga haqli ekanini ko’pchilik ulamolar ta’kidlashgan. Ushbu kitoblar o’zlaridan oldingi olti

3 Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy -Toshkent: “Hilol-nashr”, 2016. – 670 b.



kitobni qo'llab, qo'shimchalar bilan to'ldiradi"⁴.

Mazkur nashrlarning qiyosiy tahlili orqali O'zbekistonda mustaqillik yillarida hadis ilmi, muhaddislar ilmiy merosini o'rganish yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni baholash mumkin. Shu maqsadda mazkur 3 nashrning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

A) nashrlarda roviylar zanjirining berilishi. Ushbu masalada mazkur uch nashrdan 1-va 2-si bir xil bo'lib, ularda mualliflar ta'kidlaganidek, isnod zanjirining eng mashhur roviylarining ismlarigina qoldirilgan. Ammo, isnoddagi roviylarning mashhurligi qaysi mezonlar asosida ajratib olingani ko'rsatilmagan. Natijada, kitobni o'quvchilar isnoddagi roviyning qaysi tabaqa vakili ekanini anglashda qiyinchilikka uchrashiga sabab bo'lgan. "Oltin silsila"da esa, isnodning asli (sahobiy yoki tobeiy)ni zikr qilish tartibi saqlangan. Bu esa, o'quvchiga qulaylik tug'dirib, birinchi va ikkinchi nashrlar kamchiligini bartaraf etadi. Masalan,

⁴ <http://oltinsilsila.uz/site/posts?id=4>



حَدَّثَنَا الْحُمَيْدِيُّ عَبْدُ اللَّهِ بْنُ الزُّبَيْرِ، قَالَ: حَدَّثَنَا سُفْيَانُ، قَالَ: حَدَّثَنَا يَحْيَى بْنُ سَعِيدٍ الْأَنْصَارِيُّ، قَالَ: أَخْبَرَنِي مُحَمَّدُ بْنُ إِبْرَاهِيمَ التَّيْمِيُّ، أَنَّهُ سَمِعَ عَلْقَمَةَ بْنَ وَقَّاصٍ اللَّيْثِيَّ، يَقُولُ: سَمِعْتُ عُمَرَ بْنَ الْخَطَّابِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَلَى الْمِنْبَرِ قَالَ: سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ: «إِنَّمَا الْأَعْمَالُ بِالنِّيَّاتِ، وَإِنَّمَا لِكُلِّ امْرِئٍ مَا نَوَى، فَمَنْ كَانَتْ هِجْرَتُهُ إِلَى دُنْيَا يُصِيبُهَا، أَوْ إِلَى امْرَأَةٍ يَنْكِحُهَا، فَهِجْرَتُهُ إِلَى مَا هَاجَرَ إِلَيْهَا

asarning arabcha nashrlarida birinchi hadis isnodi yuqoridagicha, ya'ni Humaydiy Abdulloh ibn Zubayr, u Sufyondan, u Yahyo ibn Said Ansoriydan, u Muhammad ibn Ibrohim Taymiydan, u Alqama ibn Vaqqos Laysiydan rivoyat qilgan.

Birinchi nashrda: "Yahyo ibn Said rivoyat qildilar: Umar ibn al-Xattob minbarda turganlarida "Rasululloh (s.a.v)ning bunday deganlarini eshitganman", — dedilar: "Darhaqiqat, barcha amallar niyatga yarasha bo'lg'usidir. Kimki hijratdan niyati dunyo topmoq ersa, dunyoga erishgusi, kimki hijratdan niyati xotin olmoq ersa, xotinga nikohlangusidir. Demak, ne niyatda hijrat qilganlig'i e'tiborga olingusidir"⁵.

Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida: "Yahyo ibn Said rivoyat qiladilar: "Umar ibn al-Xattob minbarda turganlarida: "Rasululloh (s.a.v)ning bunday deganlarini eshitganman", — dedilar: "Darhaqiqat, barcha amallar niyatga qarab bo'lur. Har kimning niyati bor. Kimning niyati hijratdan dunyo topish bo'lsa, dunyoga erishadi, kimning niyati xotin olish bo'lsa, unga nikohlanadi. Demak, ne niyatda hijrat qilgan bo'lsa, o'sha e'tiborga olinadi"⁶.

"Oltin silsila"da Alqama ibn Vaqqos aytadi: "Umar ibn Xattobning minbarda turib shunday deganlarini eshitdim: "Men

Rasululloh (s.a.v)ning "Amallar faqat niyatga ko'radir. Har kimga niyat qilganigina bo'ladi. Kimning hijrati erishmoqchi bo'lgan dunyosi uchun yoki uylanmoqchi bo'lgan ayli uchun bo'lsa, demak, hijrati o'sha hijrat qilgan narsasi uchundir", deganlarini eshitdim"⁷.

Birinchi va ikkinchi tarjimalardagi sanadning butunlay yoki qisman tark etilishi, yoki oradan qaysidir roviylarning tushirib qoldirilishi natijasida isnodning yaxlitligi, uning uzliksizligiga putur yetgan. Yuqoridagi o'zbekcha tarjimada keltirilgan Yahyo ibn Said Umar ibn Xattobni ko'rmagan. Balki, Muhammad ibn Ibrohim Taymiy va Alqama ibn Vaqqos Laysiy yo'li bilan yetib kelgan rivoyatni aytib bergan. Shu bilan birga, Imom Buxoriy va Yahyo ibn Said orasida Humaydiy Abdulloh ibn Zubayr va Sufyon kabi ikkita roviy bor. Garchi tarjimada Imom Buxoriyning Yahyo ibn Saiddan eshitgani, yoki uning Umar ibn Xattobni ko'rganiga ishora mavjud bo'lmasa-da, arab tilini bilmagan o'quvchi isnodni aynan shunday deb tushinishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, Yahyo ibn Said isnod zanjiridagi boshqa roviylardan qaysi xususiyatiga ko'ra mashhurroq ekani ham noma'lum. Mazkur tartib barcha 4 jildida saqlangan. "Oltin silsila"dagi tartib esa, o'quvchi uchun qulaylik yaratadi.

B) Kitob, bob va hadislarining raqamlanishi. Asarning arabcha nashrida kitob (Vahiyning boshlanishi kitobi, Imon kitobi)lar raqamlangan holda, boblar

5 Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy: ishonarli to'plam / 1 jild. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasida. — Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. — B. 1.

6 al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: al-Jome' as-sahih: (ishonarli to'plam). T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. — B. 7.

7 Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy. — Toshkent: "Hilol-nashr", 2016. — B. 117.



raqamlanmagan. Hadislar esa, 1dan to kitob oxirigacha birin-ketin raqamlangan.

1-tarjimada esa, kitob (bob)lar raqamlanmagan. Aksincha, har bir kitobdagi boblar alohida raqamlangani, hadislarining esa, raqamlanmagani ko'zga tashlanadi.

Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida kitob (bob)lar raqamlanmagan. Ammo, har bir kitobdagi boblar alohida, hadislar esa, umumiy hisobda kitob avvalidan to oxirigacha raqamlangan.

"Oltin silsila"da har bir kitob, bob va hadislar raqamlangan. Kitoblar ichidagi boblar alohida raqamlangan bo'lsa, hadislar umumiy hisobda kitob avvalidan to oxirigacha raqamlangan.

Masalan, arabcha nashrda "Imon kitobi" 2-raqam bilan belgilangan bo'lib, 40ta raqamlanmagan bobdan hamda 8dan 58gacha bo'lgan hadislardan tashkil topgan. Mazkur 4 jildlik 1-tarjimada esa, "Imon kitobi" raqamlanmagan, boblar esa 1dan 43gacha raqamlangan. Hadislarda raqamlar berilmagan. Shayx Abdulaziz

Mansurning tarjimasida ham "Imon kitobi" raqamlanmagan, boblari esa 1dan to 42gacha raqamlangan. Birinchi tarjimadan farqli o'laroq hadislar 8dan 58gacha raqamlangan. "Oltin silsila"da "Imon kitobi" 2 raqam bilan qaydlangan, boblar 1dan 43gacha alohida raqamlangan, hadislar esa 8dan 58gacha raqamlangan. Demak, tarjimalar ichida arabcha nashrga eng yaqini "Oltin silsila" bo'lib, faqatgina boblar nomida farq mavjud. Bu esa, o'quvchiga arabcha nashrni o'zbekcha tarjima bilan birgalikda tushunishda qulaylik yaratadi.

D) Hadislarining tarjimasida va sharhlanishi. Mazkur tarjima va sharhlarning xususiyatlarini aniqlashda quyidagi hadisni ko'rib chiqish mumkin. Arabcha matnda 2 kitob "Kitobul imon"ning birinchi bobi "Nabiy (s.a.v.)ning "Islom 5 narsaga bino qilingandir" deb nomlangan. Shundan keyin Imom Buxoriy imonni "u so'z va amaldir" deb sharhlaydi va ushbu gapining isboti sifatida 11 ta oyat va ularning tafsiri borasidagi rivoyatlarni keltiradi.

بَابُ قَوْلِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: «بُنِيَ الْإِسْلَامُ عَلَى خَمْسٍ وَهُوَ قَوْلٌ وَفِعْلٌ، وَيَزِيدُ وَيُنْقُصُ، قَالَ اللَّهُ تَعَالَى {لِيَزَادُوا إِيمَانًا مَعَ إِيمَانِهِمْ} [الفتح: 4] {وَزِدْنَا لَهُمْ هُدًى} [الكهف: 13] {وَيَزِيدُ اللَّهُ الَّذِينَ اهْتَدَوْا هُدًى} [مريم: 76] {وَالَّذِينَ اهْتَدَوْا زَادَهُمْ هُدًى وَآتَاهُمْ تَقْوَاهُمْ} [محمد: 17] وَقَوْلُهُ: {وَيَزِدَادَ الَّذِينَ آمَنُوا إِيمَانًا} [المدثر: 31] وَقَوْلُهُ: {أَيُّكُمْ زَادَتْهُ هَذِهِ إِيمَانًا فَأَمَّا الَّذِينَ آمَنُوا فَرَزَادَتْهُمْ إِيمَانًا} [التوبة: 124] وَقَوْلُهُ جَلَّ ذِكْرُهُ: {فَاخْشَوْهُمْ فَرَادَهُمْ إِيمَانًا} [آل عمران: 173] وَقَوْلُهُ تَعَالَى: {وَمَا زَادَهُمْ إِلَّا إِيمَانًا وَتَسْلِيمًا} [الأحزاب: 22] وَالْحُبُّ فِي اللَّهِ وَالْبُغْضُ فِي اللَّهِ مِنَ الْإِيمَانِ " وَكَتَبَ عُمَرُ بْنُ عَبْدِ الْعَزِيزِ إِلَى عَدِيِّ بْنِ عَدِيٍّ: «إِنَّ لِلْإِيمَانِ فَرَائِضَ، وَشَرَائِعَ، وَخُدُودًا، وَسُنَنًا، فَمَنْ اسْتَكْمَلَهَا اسْتَكْمَلَ الْإِيمَانَ، وَمَنْ لَمْ يَسْتَكْمِلْهَا لَمْ يَسْتَكْمِلِ الْإِيمَانَ، فَإِنْ أَعِشَ فَسَأَبَّيْتُهَا لَكُمْ حَتَّى تَعْمَلُوا بِهَا، وَإِنْ أُمِتَ فَمَا أَنَا عَلَى صُحْبَتِكُمْ بِحَرِيصٍ» وَقَالَ إِبْرَاهِيمُ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: «وَلَكِنْ لِيُطَمِّنَنَّ قَلْبِي» وَقَالَ مُعَاذُ بْنُ جَبَلٍ: «اجْلِسْ بِنَا نُوْمِنُ سَاعَةً» وَقَالَ ابْنُ مَسْعُودٍ: «الْيَقِينُ الْإِيمَانُ كُلُّهُ» وَقَالَ ابْنُ عُمَرَ: «لَا يَلُغُ الْعَبْدُ حَقِيقَةَ النُّفُوزِ حَتَّى يَدْعَ مَا حَاكَ فِي الصَّدْرِ» وَقَالَ مُجَاهِدٌ: «شَرَعَ لَكُمْ مِنَ الدِّينِ أَوْصِيَانَا يَا مُحَمَّدُ وَإِيَّاهُ دِينًا وَاحِدًا» وَقَالَ ابْنُ عَبَّاسٍ: «شَرَعَهُ وَمِنْهَاجًا» سَبِيلًا وَسُنَّةً

1-tarjimada "Rasululloh (s.a.v) bunday deganlar: "Islom 5 dalil asosiga qurilgan. (Islomdan murod imon demakdir). Imon so'zda ham, amalda ham bo'lmog'i kerak. Imon kuchaygaydir va susaygaydir"⁸.

Shundan so'ng oyatlarning o'zbek tilidagi tarjimasida keltirilgan.

Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida esa, "Rasululloh (s.a.v.)ning so'zlari bo'yicha, Islom 5 rukn (ustun) uzra qurilgan. Imon

8 Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy: ishonarli to'plam / 1 jild. Arabchadan Zokirjon Ismoil

tarjimasida. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. – B. 6.



soʻzda ham, amalda ham boʻlishi kerak. Imon koʻpayadi va kamayadi”⁹. Alohida taʼkidlash lozimki, aqida matnlarida Abu Hanifaning qarashi sifatida bayon etilganini koʻrish mumkin¹⁰. Ushbu masalani muallif alohida izohlab, “Imon, hanafiy va moturidiy eʼtiqodi boʻyicha, qalb bilan tasdiq qilib, til bilan iqrar etishdir. Uning oʻzi emas, balki nuri yoki quvvati koʻpayib, ozayib turadi”, deb qayd qilgan.

“Oltin silsila”da bob nomi “Imon va Nabiy (s.a.v)ning “Islom 5 narsaga bino qilingandir” soʻzlari haqida” deb nomlangan boʻlib, arabcha nashrdagi matn keltirilgan. Shundan keyin, “U (imon) soʻz va amaldir, ziyoda ham, noqis ham boʻladi” deb matn tarjimasini qayd qilgan. Oyatlar tarjimasidan keyin, “Imom Abu Hanifa rahmatullohi alayhi bu masala xususida quyidagilarni aytgan: “Bu bahs lafziydir. Chunki imondan murod faqat tasdiq boʻlsa, u holda bu ziyodalik va nuqsonni qabul qilmaydi. Agar toatlar ham undan boʻlsa, ularni qabul qiladi”. Soʻng aytdilar: “Toatlar tasdiqni mukammal qiladi. “Imon ziyodalik va nuqsonni qabul qilmaydi” degan soʻzga keltirilgan dalillarning hammasi imonning asli boʻlgan tasdiqqa buriladi. “Imon ziyodalik va nuqsonni qabul qiladi” degan soʻzga dalolat qiladigan hamma narsa tasdiq bilan amaldan iborat komil iymonga taalluqlidir” (“Umdatul Qoriy sharhu Sahihil Buxoriy”, “Imon kitobi”).

Bu soʻzlar “iymoning ziyoda va noqis boʻlishi haqida”gi 34-bobga ham tegishli. Buxoriy va boshqa muhaddislarga koʻra,

bandaning imoni uning din amallarida bardavom boʻlishiga qarab ziyoda boʻladi va doimiy nuqsonga yoʻl qoʻyishiga qarab kamayadi. Imom Abu Hanifaga koʻra ham imon ziyoda va noqis boʻladi. Biroq imonning ayni oʻzi emas, balki sifati shunday xususiyatga ega¹¹.

Yuqorida 3 nashrda ayni bir hadisning tarjima va sharhi keltirildi. Maʼlum boʻladiki, ilk nashrda tarjimon وَهُوَ قَوْلٌ وَفِعْلٌ iborasini “Imon soʻzda ham, amalda ham boʻlmogʻi kerak” tarzida berish orqali hanafiy-moturidiy aqidasiga muvofiq izohlashga harakat qilgan. Shu bilan birga, uning ziyoda yoki noqisligini kuchayishi yoki kamayishi deb tarjima qilingani ham mazkur maqsadga xizmat qiladi. Abdulaziz Mansur esa, avval matnni aslicha tarjima qilib, keyin uni tushunishda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan tushunmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida tag havolada hanafiy-moturidiy taʼlimotida mazkur masaladagi qarashning qanday ekanini qayd qilgan. “Oltin silsila”da esa, “Umdatul Qoriy sharhu Sahihil Buxoriy” asaridagi sharhni tarjima qilish bilan birga, mazkur masaladagi Abu Hanifa qarashlari ham bayon etilgan.

E) Hadislar tarjima va sharhida mazhab qarashlarining berilishi. Arabcha matnda:

9 al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihil Buxoriy: al-Jomeʼ as-sahih: (ishonarli toʻplam). T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 11.

10 Qarang: Imom Bobartiy, Akmaliddin Muhammad ibn Muhammad. Sharh vasiyat al-imom Abi Hanifa. – Ammon: Dor al-fath, 2009. – B. 64-65

11 Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy. — Toshkent: “Hilol-nashr”, 2016. – B. 128-130.



بَابُ رَفْعِ الْيَدَيْنِ إِذَا كَبَّرَ وَإِذَا رَكَعَ وَإِذَا رَفَعَ

736 — حَدَّثَنَا مُحَمَّدُ بْنُ مِقَاتٍ، قَالَ: أَخْبَرَنَا عَبْدُ اللَّهِ، قَالَ: أَخْبَرَنَا يُونُسُ، عَنِ الزُّهْرِيِّ، أَخْبَرَنِي سَالِمُ بْنُ عَبْدِ اللَّهِ، عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عَمْرٍو رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا، قَالَ: "رَأَيْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِذَا قَامَ فِي الصَّلَاةِ رَفَعَ يَدَيْهِ حَتَّى يَكُونَا حَذْوَ مَنْكِبَيْهِ، وَكَانَ يَفْعَلُ ذَلِكَ حِينَ يَكْبُرُ لِلرُّكُوعِ، وَيَفْعَلُ ذَلِكَ إِذَا رَفَعَ رَأْسَهُ مِنَ الرُّكُوعِ، وَيَقُولُ: سَمِعَ اللَّهُ لِمَنْ حَمَدَهُ، وَلَا يَفْعَلُ ذَلِكَ فِي السُّجُودِ"

Birinchi tarjimada ushbu hadis quyidagicha tarjima qilingan:

"Nofi' (r.a) rivoyat qiladilar: «Ibn Umar (r.a) takbiri tahrira aytib namozni boshlayotganlarida qo'llarini yelka barobarida ko'tarar edilar. Ruku' qilganlarida ham, «Sami'allohu liman hamidah» deganlarida ham, ikkinchi rak'atdan turganlarida ham shunday qilar edilar (Ibn Umar (r.a) buni Rasululloh (s.a.v)ga nisbat berg'aydirlar)»¹².

Shayx Abdulaziz Mansur ushbu hadisni quyidagicha tarjima qiladi: "Nofe' (rz.) rivoyat qiladilar: "Ibn Umar (rz.) takbiri tahrira aytib namozni boshlayotganlarida qo'llarini yelka barobarida ko'tarar edilar. Ruku' qilganlarida ham, "Sami'allohu liman hamidah" deganlarida ham, ikkinchi rak'atdan turganlarida ham shunday qilar edilar Ibn Umar (rz.) buni Rosululloh (sav)ga nisbat beradilar)". Ushbu hadis sharhida 735-hadis izohiga qarash tavsiya etilgan. Unda: "Ushbu va keyingi to'rtta hadisga ko'ra, shofiiy mazhabida qo'l yelka barobarida ko'tariladi. Boshqa hadislariga ko'ra, hanafiy bazhabida qo'llar quloqlar barobarida ko'tarish ixtiyor etilgan ("Hidoya"). Abu Dovudning "Sunan" kitobida va boshqa hadis to'plamlarida Rosul (as) namozni boshlashda qo'llarni bir marta ko'targanlari hanafiy mazhabiga asos bo'la oladi ("Umda")". Tarjimada alohida izoh berilmagan bo'lsa-da, mazkur hadisdan yuqorida turgan 738-hadis

tarjimasi ham uni sharhlashga xizmat qiladi. Jumladan, unda: "Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumo aytadi: "Nabi (s.a.v)ni ko'rdim: Namozni takbir bilan boshladilar. Takbir aytganlarida ikki qo'llarini ko'tarib, yelka barobarigacha olib bordilar. Ruku'ga takbir aytganlarida ham shunday qildilar. "Sami'allohu liman hamidah"ni aytganlarida ham shunday qildilar va "Robbana va lakal-hamd", dedilar. Buni sajda qilayotganlarida ham, boshlarini sajadan ko'tarayotganlarida ham qilmadilar"¹³.

"Oltin silsila"da mazkur hadis quyidagicha tarjima qilingan: "Nofe'dan rivoyat qilinadi: "Ibn Umar namozni boshlashda takbi aytar va ikki qo'lini ko'tarar edi. Ruku' qilganda ham ikki qo'lini ko'tarar, "Sami'allohu liman hamidah", deganda ham ikki qo'lini ko'tarar hamda ikkinchi rakatdan turganda ham qo'llarini ko'tarar edi. Ibn Umar buni Nabiulloh (s.a.v)ga nisbat berar edi". Ushbu tarjimadan so'ng izoh sifatida 736-hadisga qarash tavsiya qilingan. Ushbu hadis sharhida esa, "Shofe'iy va hanbaliy mazhabi olimlari mana shu hadisni ustun bilishgan va amal uchun tanlashgan. Ammo hanafiylar tahrira takbiridan boshqa o'rinda qo'l ko'tarmaslikni ixtiyor qilishgan. Chunki ular Abu Dovud, Ibn Abu Shayba va Tahoviylar Baro ibn Ozibdan rivoyat qilgan "Nabi (s.a.v) namozga kirish uchun takbir aytсалar, qo'llarini ko'taradilar, hatto bosh

1212 Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy: ishonarli to'plam / 1 jild. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. – B. 147.

13 al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: al-Jome' as-sahih: (ishonarli to'plam). — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 122.



barmoqlari quloqlari yumshog'iga yaqin kelar edi, keyin boshqa ko'tarmas edilar", degan hadisni quvvatli deb bilishgan. "Badoye"da aytilishicha, Ibn Abbos roziyallohu anhumo: "Rasululloh (s.a.v) jannatiyligi haqida bashorat bergan o'n kishi qo'llarini faqat namozni boshlashda ko'tarishar edi", degan"¹⁴.

O'zbekistonda amalga oshirilgan hadis to'plamlari tarjimalari orasida Imom Buxoriyning "al-Jome' as-sahih" asari ahamiyati va qamrovi bilan birinchi o'rinda turadi. Ushbu asar bugungacha 3 marta to'liq tarjima qilingan bo'lib, ularning birinchisi 6 nafar o'zbek islomshunoslari tomonidan amalga oshirilgan. Ikkinchi tarjima esa, Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, 2008-yilda ikki jildda nashr etilgan. Ushbu tarjima dastlabki tarjimaning qayta ishlangan va ba'zi izohlar qo'shilgan varianti hisoblanadi. Muftiy Usmonxon Alimovning muqaddimasi bilan chop etilgan mazkur nashrda hadislarning islom dinidagi o'rni, ularning turlari, ilm sifatida rivojlanish bosqichlari, mashhur hadis to'plamlari, Imom Buxoriyning hayoti, uning "al-Jome' as-sahih" asarining o'zbek tilidagi birinchi tarjimasi va ushbu tarjimaning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. To'plamning uchinchi – mukammal tarjima va sharhi 2013-2018-yillarda 8 jildda Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf boshchiligidagi tarjimonlar guruhi tomonidan nashr etilgan.

14 Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy. — Toshkent: "Hilol-nashr", 2013. – B. 569, 567..



References:

1. Bobartiy, A. M. (2009). *Sharh vasiyat al-imom Abi Hanifa*. Ammon: Dor al-fath.
2. Buxoriy, M. i. (1997). *Ishonarli to'plam* (1 nash., 1-tom). (Z. Ismoil, Tarj.) Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati.
3. Buxoriy, M. i. (1997). *Ishonarli to'plam* (2-tom). (X. B. Xoja Muzaffar Nabixon o'g'li, Tarj.) Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati.
4. Buxoriy, M. i. (1997). *Ishonarli to'plam* (3-tom). (X. B. Rahmatulloh Qori Qosim o'g'li, Tarj.) Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati.
5. Buxoriy, M. i. (1997). *Ishonarli to'plam* (4-tom). (A. Abdulloh, Tarj.) Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati.
6. Buxoriy, M. i. (2001). *al-Jome' as-sahih*. Bayrut: Dor tuq an-najot.
7. Buxoriy, M. i. (2008). *Sahihi Buxoriy: al-Jome' as-sahih: (ishonarli to'plam)*. (1-tom). (S. A. Mansur, Tarj.) Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
8. Buxoriy, M. i. (2013). *Oltin silsila: 1-juz: Sahihul Buxoriy* (1-tom). (S. M. Yusuf, Tarj.) Toshkent: "Hilol-nashr".
9. Eshonjonov, B. (2001). *IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqei va uning "al-Jomi' as-sahih" asaridagi fiqhiy masalalar*. Toshkent.
10. N.Mirmahmud. (1998). Imom al-Buxoriy va al-Jome' as-Sahih. *Sharqshunoslik*(4), 42-49.
11. Rahimjonov, D. (1999). Imom al-Buxoriy va Movarounnahr hadis maktablari. *Sharqshunoslik*(9), 44-48.
12. Dr. Durbek A. Rakhimjanov, Muhammadamin B. Karimov. Abu Hafs Nasafi and Science of Hadith. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*. Volume: 4, 399-402. Available at: <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/104/92>
13. Tuychieva Nilufar Makhsudjonovna. Coverage of the Activities of the Qalandar in the Sources and Literature. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*. Volume: 4, 797-803. Available at: <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/186/170>
14. Tuychieva Nilufar Makhsudjonovna. Adabiy Manbalarda Qalandar obrazining yoritilishi. Innovative Developments and research in Education International scientific-online conference. Part 4, 114-120. Available at: <https://zenodo.org/record/6377270>
15. Doniyor Muratov Maxamatvaliyevich. Ilk Islom Davrida Hadislarning Tarqalishi. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5 ISSN 2181-178*, 127-131. Available at: https://www.oriens.uz/media/journalarticles/15.Дониёр_Муратов_127-131.pdf
16. Ismoilov Mas'udxon Maxdiyevich. O'zbekistonda Tasavvufning O'rganilishiga Doir. International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses. 169-172. Available at: <http://www.conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/211/184>
17. Khakimova Nigora Alisherovna. The concept of human interest in jurisprudential principles: al-Qaffal al-Shashi's approach. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. Vol. 12, Issue 04, April 2022. ISSN: 2249-7315, SJIF 2022 = 8.625. DOI:



10.5958/2249-7315.2022.00181.2 <https://aijsh.com/wp-content/uploads/2022/05/4.47-Khakimova-Nigora-Alisherovna-FULL.pdf>

18. Doniyor Muratov Maxamatvaliyevich. The Science of Hadith in Movarounnahr in the IX-X Centuries. European Multidisciplinary Journal of Modern Science. Volume: 6, 437-445. Available at: <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/423/536>

19. Qambarov A.M. Abu Bakr Ibn Mas'ud Kasani, A Representative of the Jurists of Mawarounnahr. Child Studies in Asia-Pacific Context (CSAC). 2022, 12 (1); ISSN: 2288-601X 295-301 [Vol. 12 No. 1 \(2022\) | Child Studies in Asia-Pacific Contexts \(e-csac.org\)](https://www.e-csac.org/Vol.12.No.1(2022)/ChildStudiesinAsia-PacificContexts)

20. Saidmukhtor Okilov. The Problem Of Faith ("Iman") In the doctrine of Maturidyah: Harmony of Olanguage with language (Soul) (by the example of the views of Abu-l-Mu'in An-Nasafi). International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Issue: 04 Volume: 108 Published: 22.04.2022 <http://T-Science.org> SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS

21. Окилов Саидмухтор. Роль Сочинения «Бахру-Л-Калам» В Учении Матуридия. PERIODICA Journal of Modern philosophy, social sciences and humanities ISSN NO:2720-4030 Volume 12, November,2022 <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/301/266>

22. Saidmukhtor Okilov. Works written on khanafi belief in Movarounnahr in the X century. urkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 6, July 2021 : 6689 – 6693. <https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/2806/1874>